

SOLIQ SIYOSATINI IQTISODIY FAOLLIKKA YO‘NALTIRILGAN MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qahhorov Shohruh

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada malakatimizda soliq siyosatini iqtisodiy faollikka yo‘naltirilgan mexanizmini tubdan takomillashtirish masalalari o‘rganilgan va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq siyosati, tashqi bozor, iqtisodiy faollik.

O‘zbekistonda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy vazifasi mamlakatda iqtisodiy o‘shishga va uning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Aynan iqtisodiy o‘shishga erishilgandagina ishlab chiqarishni rivojlanishiga va uning samaradorligini ta‘minlashga, aholining turmush darajasini oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda doimo takomillashib borilishi lozim.

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizimini soddalashtirish provardida mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirish kabi muhim masalalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan iqtisodiy o‘shish sur‘atlari 2023-yilda ham ta‘minlanishi belgilab qo‘yildiki, bunday natijaga har tomonlama chuqur va puxta o‘ylangan izchil byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida uning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish va albatta, byudjet daromadlarini samarali tashkil etishga qaratiladi. Hozirda birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad solig‘i stavkasini tabaqalashgan stavkadan bitta stavkaga o‘tkazish, ya‘ni 12 foizlik stavkani qo‘llash, jismoniy shaxslardan

sugʻurta badalini bekor qilish va shu bilan birga, faoliyat yuritayotgan xoʻjalik yurituvchi subʻektlar uchun soliq konsepsiyasida koʻplab ijobiy oʻzgarishlar kiritildi. Shu jumladan, xoʻjalik yurituvchi subʻektlardan olinadigan yagona ijtimoiy toʻlovning stavkasi tushirilishi, fermer va dehqon xoʻjaliklaridan davlat maqsadli jamgʻarmalariga majburiy ajratmalarning bekor qilinishi, xoʻjalik yurituvchi subektlarning oborotidan kelib chiqqan holda tabaqalashgan tizimda soliqqa tortilishi ham ularga berilgan qoʻlayliklar va boshqa koʻplab boshqa imkoniyatlar ham yaratib berilmoqda. Shu bois yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyoti yuksaladi, provardida iqtisodiy faollik ortishiga olib keladi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida soliq siyosatini takomillashtirish hamda soliq siyosatining iqtisodiy faollikka yoʻnaltirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator takliflar mavjud:

1-taklif. Iqtisodiy faollikni yanada oshirishda soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim. Soliq toʻlovchilar zimmasidagi soliq yukini iqtisodiy rivojlanishning darajasiga monand holda bosqichma-bosqich kamaytirib borish tartibi joriy etish kerak.

2-taklif. Oʻzbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy faollikni yanada oshirishga qaratilgan soliq siyosatning asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblangan – soliq maʼmurchiligini yanada takomillashtirish orqali soliq-byudjet munosabatlarini optimallashtirish, soliq toʻlovchilarning mustaqil daromad topishlariga toʻliq imkoniyat yaratib berish, ularning faoliyatlariga sababsiz toʻsiq boʻlmaslik, soliq tekshiruvlarining samaradorligini oshirish, soliq undirish xarajatlarini yanada kamaytirish lozim.

3-taklif. Tashqi bozorlarda raqobatbardosh boʻlgan yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, yaʼni ular uchun qoʻshimcha soliq engilliklarini taqdim etish maqsadga muvofiq.

4-taklif. Bugungi kunda soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard soʻmdan oshmagan yuridik shaxslar uchun yagona soliq toʻlovining amal qilishi, bir milliard soʻmdan oshgan holda umumbelgilangan soliqlarni toʻlashga oʻtish tartibi belgilangan. Hozirda bu holat yagona soliq toʻlovini toʻlash tartibida qolishlari uchun mazkur korxonalar yalpi tushumini kamaytirib koʻrsatishlariga yoki korxonalarni boʻlishlariga olib kelmoqda. Shuning uchun ularning soliq davrida olingan yalpi tushumi miqdorlarini faoliyat turi hamda joylashgan joyidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan holda belgilash lozim.

5-taklif. Iqtisodiy faollikni yanada oshirishda soliq imtiyozlarining berilish mezonlarini takomillashtirish va imtiyozlarning samaradorligini doimiy monitoring qilish jarayonini yo‘lga qo‘yish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Niyazmetov I.M. Daromadlarni soliqqa tortish tizimini unifikatsiyalash. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 2, aprel, 2018 yil
2. Asatullaev X.S. Iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosati.//Soliq ma’urchiligini takomillashtirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.Toshkent.2018y.38-40 b.
3. <http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
4. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.